<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> , kafedra dotsenti	
Цифровизация страховых претензий является основным механизмом развития страховой отрасли ....	835
<b>Узакова Камола Бехзодовна</b> , ассистент кафедры	
O'zbekiston va MDH mamlakatlari soliq tizimining qiyosiy tahlili .....	839
<b>Bobomurotova Manzura Panji qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Soliq ma'muriyatçiligi tizimida samarali soliq nazoratini tashkil etish masalalari.....	845
<b>Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li</b> , <b>Bobomurotova Manzura Panji qizi</b> , mustaqil tadqiqotchilar	
Banklarda aktivlar portfellarining zamonaviy holati .....	851
<b>Murodova Mohigul Chori qizi</b> , katta o'qituvchi	
Vaqtni boshqarish texnologiyasidan foydalangan holda talabalarning o'quv faoliyatida o'zini o'zi tashkil etishini rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari.....	855
<b>Otajonova Maftuna Sultonmurodovna</b> , tayanch doktarant	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish .....	859
<b>Ustadjalilova Kurshida Aliyevna</b> , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida .....	863
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b> , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi .....	868
<b>Mansurov Saidxo'ja Kamalovich</b> , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchilagini boshqarishning hozirgi zamon muammolari.....	875
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions .....	879
<b>Ergasheva Malikakhon</b> , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
<b>Amanov Otabek Amankulovich</b>	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida .....	888
<b>Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b> , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish .....	897
<b>Saidaxmedova Nodira Ilxamovna</b> , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования .....	902
<b>Bokhodir Isroilov</b> , Doctor of Economics, <b>Boburshohk Ibragimov</b> , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
<b>Raximova Shaklo Rajapboyevna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishslashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	915
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b> , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish .....	922
<b>Maxmudov Anvarjon Maxmudovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili .....	930
<b>Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich</b> , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи.....	935
<b>Зайналов Жаҳонгир Расулович</b> , профессор, <b>Бердикулов Журабек</b> , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditii va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar .....	938
<b>Nosirov Ilhom Abbosovich</b> , i.f.d., <b>Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
<b>Холмирзаева Феруза Абдуллаевна</b>	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна .....	949
<b>Холбеков Расул Олимович</b> , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'naliishlari .....	956
<b>Axmedova Nafisa Amriddin qizi</b>	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish .....	962
<b>Ruziyeva Shaxlo Raupovna</b>	



Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari.....	968
<b>Maxmudova Sharifa Elmurodovna</b> , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar .....	972
<b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b> , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlari rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish .....	978
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida) .....	983
<b>Nabiyeva Feruza Odilovna</b> , tayanch doktorant, <b>Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna</b>	
Пути организаций инновационных процессов в Узбекистане .....	988
<b>Насиров Дилшод Фарходович</b>	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
<b>Кодиров Бобур Абдулбори угули</b> , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari .....	1000
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
Tijorat banklari operatsion xarakatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari .....	1005
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich</b>	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsiunal tahlili .....	1014
<b>Hakimjon Hakimov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1019
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish .....	1024
<b>Ilyasova Barno Axmadowna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
<b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari .....	1033
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
<b>Artikov Ne'matulla Abdusalamovich</b>	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar .....	1046
<b>Yuldashev Feruz Isroil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari .....	1052
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari .....	1058
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliv ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi ....	1064
<b>Muxtorova Umida Karimovna</b> , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы .....	1070
<b>Нуриллаев Рахмат Ярашевич</b> , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции .....	1075
<b>Бабаева Гузаль Яшиновна</b> , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili .....	1081
<b>Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>	



# OILAVIY BIZNES BO'YICHA JAHON AMALIYOTI TAHLILI

Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li  
BMA, bosh mutaxassisি



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilaviy biznesning mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha turli olimlarning yondashuvlari o'rganilgan. Oilaviy biznes bo'yicha mamlakatlar indeksi, oilaviy kompaniyalar, Finlandiyada oilaviy biznesning joriy holati misolida oilaviy biznes bo'yicha xalqaro amaliyat tahlil qilingan. Amalga oshirilgan o'rganishlar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy biznes, oilaviy korxonalar, oilaviy biznes bo'yicha mamlakatlar indeksi, oilaviy qadriyatlar, oilaviy biznesning hayotiylik davri.

**Abstract:** This article examines the approaches of various scientists on the nature, importance and specific characteristics of family business. The index of countries on family business, family companies, the current situation of family business in Finland is analyzed as an example of the international practice of family business. Relevant conclusions were formed based on the conducted studies.

**Key words:** family business, family enterprises, family business index for countries, family traditions, life cycle of family business.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются подходы различных ученых к природе, значению и особенностям семейного бизнеса. Индекс страны семейного бизнеса, семейные компании, текущая ситуация семейного бизнеса в Финляндии анализируется на примере международной практики семейного бизнеса. На основании проведенных исследований сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** семейный бизнес, семейные предприятия, страновой индекс семейного бизнеса, семейные ценности, жизненный цикл семейного бизнеса.

## KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati, xususan, oilaviy biznes muhim o'rinn tutadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "jahonda oilaviy biznes o'rta hisobda barcha kompaniyalarning 70% ni qamrab olib, bu ko'rsatkich AQSHda 80% gacha, Finlyandiyada 94% gacha boradi". Oilaviy tadbirkorlikning ishsizlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlarini oshirish, o'rta mulkdorlar qatlamini oshirish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ishtirotkini kengaytirish ilmiy tadqiqotning dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

"Oilaviy tadbirkorlik oila a'zolari tomonidan yoki yaqin qarindoshlar tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat turidir".

"Oilaviy korxona to'liq firma nomiga ega bo'lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishga haqli. Oilaviy korxonaning to'liq firma nomi uning to'liq nomini va "oilaviy korxona" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va "oilaviy korxona" degan so'zlarni yoki "OK" abbreviaturasini o'z ichiga olishi kerak".

Oilaviy biznes moliyasini quyidagilar tashkil etadi (1-rasm)



1-rasm: Oilaviy biznes moliyasi tarkbi<sup>[1]</sup>

Oilaviy biznes moliyasi esa faoliyati davomida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridaq ta'riflar hamda turli qarashlarni taqqoslash va tahlil qilish natijasida, oilaviy biznes bu oila yoki bir nechta yaqin oilalar mulkning barcha yoki katta qismini egallagan va boshqaruv organining barchasini yoki bir qismini nazorat qiladigan bizneslarga aytildi degan xulosaga keldik.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchilar oilaviy biznesning yuzaga kelishiga ham e'tibor qaratishgan. "Oilaviy biznes biznesni tashkil etishning eng qadimgi va asosiy shakllaridan biridir. Bugungi raqobat sharoitida oilaviy kompaniyalarning o'sishi va saqlanib qolishi bir qator jihatlarga bog'liq. Xususan, sezilarli darajada tez o'zgaruvchan muhitga javoban tashkiliy imkoniyatlarni shakllantirish, kengaytirish yoki qayta konfiguratsiya qilish masalalari shular jumlasidandir. Oila a'zolarining harakat yo'nalishlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha yagona boshqaruvning mavjudligi biznes muammolarini hal qilish va maqsadlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi"<sup>[2]</sup>.

"Umumiyl mulkchilik va nazorat oila tomonidan amalga oshiriladigan va kamida ikki yoki undan ortiq oila a'zolari biznesni boshqarishda ishtirok etadigan biznes oilaviy biznesi deb tushuniladi va butun dunyoda katta ahamiyatga ega. Ular barcha korxonalarining 70% dan ortig'ini tashkil qiladi, o'rtacha ish o'rinalining 60% ni yaratadi va jahon yalpi ichki mahsulotiga (YALM) o'rtacha 67% hissa qo'shadi"<sup>[3]</sup>.

O'zbekistonda ham oilaviy biznes bo'yicha atroficha tadqiqotlar o'tkazilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. "Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish va realizatsiya qilish uchun ixtiyoriy asosda, ishtirokchilarning ulushli yoki umumiy mol-mulk, shuningdek, ishtirokchilardan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi"<sup>[4]</sup>.

Rushdi M. R. Razzaque, Muhammad Jahangir Ali, Paul Mather (2020) kabilar rivojlanayotgan mamlakatlarda korporativ boshqaruv islohotlari va ularning oilaviy firmalarga ta'siri borasida izlanishlar amalga oshirib, birinchi navbatda mulkdorlik va boshqaruv tartibidagi o'zgarishlarga e'tibor qaratadi<sup>[5]</sup>.

S. Elmirmayev (2019) esa korporativ boshqaruv modellarini o'rganish asnosida alohida korporativ boshqaruvning oila modelini ajratib ko'rsatadi va alohida xususiyatlariiga e'tibor qaratadi<sup>[6]</sup>.

Yuqoridaq tadqiqotchilar fikriga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz miyosida oilaviy biznesni rivojlantirish va samarali tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish masmlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada oilaviy biznes bo'yicha xalqaro amaliyotni tahlil qilish davomida turli mamlakatlar va kompaniyalarning ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali qiyoslash metodi qo'llanilgan. Turli tahlillarni amalga oshirish orqali analiz, sintez va ilmiy abstraksiyalash amalga oshirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ba'zi o'rGANISHLAR shuni isbotladiki, oilaviy biznes kompaniyalari o'zlarining oilaviy biznes bo'limgan raqobatchilariga nisbatan savdo tushumi, sof foyda va boshqa o'sish mezonlari bo'yicha ustunlikga egadir. Yevropa ittifoqi oilaviy biznes solnomasi 2017-yilgi ma'lumotlarga asosan dunyodagi eng ko'p yillik tushumga ega va ishchilar soni bo'yicha eng katta ko'rsatkichga ega bizneslar oilaviy bizneslardir. 2015-yilda eng yirik 500 ta oilaviy biznesning yillik tushumi 6,81 trillion AQSH dollarini miqdoridagi rekord natijani qayd etgan va ulardagi ishchilar soni 24,1 million kishini tashkil etgan. Shuningdek, murakkab yillik o'sish sur'ati (compound annual growth rate) bo'yicha ham ushbu biznes vakillari eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan bo'lib, misol uchun xitoydagi Wanxiang Group 203,3%, Gollandiyadagi Altice NV kompaniyasi esa 196,7% o'sish sur'atiga ega bo'lgan.

"Oilaviy biznes barcha turdag'i biznes tuzilmalari ichida eng moslashuvchan biznes tuzilmasidir. Iqtisodiy va siyosiy atrof-muhitda nima bo'lishidan qat'iy nazar ular Yevropa iqtisodiyotining rivoji va dinamik o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishda davom etishadi" (Peter Englisch, EY Global Family Business Leader)<sup>[7]</sup>.

Oilaviy korxonalar AQSHning rivojlangan mintaqalarida va iqtisodiy mustahkamlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda joylashgan bo'lsada, ular Germaniya va Italiyada muhim o'yinchilardir, odatda ular Yevropaning eng sanoat mamlakatlari hisoblanadi. Misol uchun, Italiya sanoat sektori oilaviy firmalarning ko'pligi bilan tavsiflanadi va Germaniya kontekstida kichik va o'rta firmalar, ularning aksariyati oilaga tegishli va boshqariladi, mintaqaviy biznesning asosini tashkil qiladi. Iqtisodiyot, ijtimoiy sug'urta badallari to'lanadigan barcha xodimlarning 60% ish bilan ta'minlangan.

Yuqorida aytib o'tilgan munozarani davom ettirish uchun ushbu bob Yevropa mintaqalarida oilaviy firmalarning tarqalishini o'rGANISHGA qaratilgan. Bizning topilmalarimiz Yevropaning yettita davlatida (Avstriya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya) sanoat ishlab chiqarish tuzilmalarida ularning tarqalishining umumiy tavsifiy rasmini taqdim etadi.

**1-jadval:** Ishlab chiqarish sanoatida oilaviy firmalarning ulushi<sup>[8]</sup>

Davlatlar	Oilaviy firmalar ulushi (%)
Avstriya	82
Fransiya	58
Germaniya	84
Vengriya	56
Italiya	76
Ispaniya	77
Birlashgan Qirollik	64

Bundan tashqari, biz oilaviy firmalar va mintaqaviy kontekst o'rta sidagi ikki tomonlama munosabatlarni tahlil qilamiz va oilaviy firmalar sifatsiz institutlarga ega bo'lgan hududlarda haddan tashqari ko'pligi haqidagi dalillarni to'liq qo'llab-quvvatlamasakda, biz oilaviy firmalar o'rta sidagi umumiy munosabatlarni aniqlaymiz hamda mintaqaviy raqobatbardoshlik (ya'ni, mahsuldarlik, eksport va innovatsiyalar) moliyaviy boshqaruvning barqarorligi tahlil qilinadi.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda oilalar tomonidan boshqariladigan ko'plab mashhur kompaniyalar mavjud. Quyidagi 2-jadvalda 2022-yilda dunyoning top-25 oilaviy kompaniyalarini tahlil qilamiz.



2-jadval: 2022-yilda dunyoning top-25 oilaviy kompaniyalari tahlili [9]

№	Kompaniya nomi	Egalik qiluvchi oila nomi	Egalik qiluvchi oila ulushi	Tashkil etilgan yili	Mamlakat	Yillik daromad (mln. AQSh dollarri)
1	Walmart Inc.	Walton	47,1	1962	AQSh	559 151,0
2	Volkswagen AG	Porsche and Piech	53,3	1937	Germaniya	284 544,0
3	Berkshire Hathaway Inc.	Buffet	37,3	1955	AQSh	276 094,0
4	Schwarz Group	Schwarz	100,0	1930	Germaniya	142 499,7
5	Ford Motor Co.	Ford	40,0	1903	AQSh	136 341,0
6	Gunvor Group Ltd.	Tornqvist	88,4	2000	Shveytsariya	135 000,0
7	Cargill Inc.	Cargill, MacMillan	90,0	1865	AQSh	134 426,0
8	ALDI Group	Albrecht	100,0	1948	Germaniya	133 113,1
9	Tata Sons Private Ltd.	Tata	66,0	1868	Hindiston	128 000,0
10	Bayerische Motoren Werke AG (BMW)	Quandt, Klatten	46,7	1916	Germaniya	126 508,6
11	Comcast Corp.	Roberts	33,3	1963	AQSh	116 385,0
12	Koch Industries Inc.	Koch	100,0	1940	AQSh	115 000,0
13	Dell Technologies Inc.	Dell	72,0	1984	AQSh	86 670,0
14	SK Group	Chey	32,7	1953	Janubiy Koreya	82 545,6
15	Country Garden Holdings Co. Ltd.	Yang	62,0	1992	Xitoy	82 338,6
16	ArcelorMittal S.A.	Mittal	37,6	1976	Lyuksemburg	76 571,0
17	LVMH Moet Hennessy	Arnault	47,4	1987	Fransiya	73 029,7
18	Roche Holding AG	Hoffmann, Oeri, Duschmale	45,0	1896	Shveytsariya	72 234,8
19	China Evergrande Group	Hui	65,8	1996	Xitoy	71 751,6
20	Pacific Construction Group Co. Ltd.	Yan	100,0	1995	Xitoy	64 037,7
21	Reliance Industries Ltd.	Ambani	47,4	1973	Hindiston	63 822,2
22	JBS S.A.	Batista	43,2	1953	Braziliya	62 942,3
23	LG Electronics Inc.	Koo	30,8	1947	Janubiy Koreya	62 730,2
24	A.P. Muller-Maersk	Muller, Maersk, Mc-Kinney Uggla	69,9	1904	Daniya	61 787,0
25	INEOS Group Holdings S.A.	Ratcliffe, Reece, Currie	100,0	1998	Lyuksemburg	61 000,0

2-jadvalda oilalar tomonidan egalik qilinuvchi kompaniyalar orasida yetakchilik Walmart kompaniyasiga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, Volkswagen, Berkshire Hathaway, Ford, BMW, Koch Industries, Dell Technologies, LG Electronics kabi mashhur kompaniyalar ham oilaviy biznes asosida tashkil etilgan. Ko'sratkichlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Walmart 2021-yilda deyarli 560 mlrd. AQSh dollarri miqdorida daromad ko'rgan bo'lsa, 25-o'rinni band qilgan INEOS Group Holdings S.A. kompaniyasi esa 61 mlrd. AQSh dollarri miqdorida daromad ko'rgan. Shuningdek, dunyo bo'ylab AQSh, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlar kompaniyalari bilan bir qatorda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Lyuksemburg kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlar



kompaniyalari ham mazkur ro'yxatdan joy olishgan. Ro'yxatdagi kompaniyalarga egalik qiluvchi oilalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Walton, Porsche, Buffet, Schwarz, Ford, Tata, Koch, Dell kabi dunyoga mashhur oilalar tomonidan mazkur kompaniyalarga egalik qilnayotganligi va boshqaruvi tashkil etilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur kompaniyalarning hayotiylik davrini kuzatadigan bo'lsak, 25 yillik kompaniyalardan tortib bir yarim asrlik tarixga ega kompaniyalarni ham uchratishimiz mumkin. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bugungi kunda dunyo bo'ylab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda oilaviy biznes boshqa biznes turlari qatorida yirik biznes turlariga aylanib ulgurgan va oilaviy biznes moliyasining alohida xususiyatlarini namoyon qilmoqda.

Finlandiya tajribasini o'rganadigan bo'lsak, mazkur davlatda oilaviy biznes har bir sohada uchrashi mumkin. Ularning ulushi har bir sohada hajmiga qarab bir-biridan farq qiladi. Umumiy tahlil shuni ko'rsatadi, Finlandiya yada turar joy va oziq-ovqat xizmatlari sohalarida oilaviy korxonalar ustunlik qiladi.

## XULOSA

Oilaviy biznes bo'yicha xalqaro amaliyotni tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni berish mumkin.

Keskin raqobat sharoitida oilaviy kompaniyalarning o'sishi va saqlanib qolishi bir qancha jihatlarga bog'liq. Birinchidan, oilaviy biznesda samarali korporativ boshqaruvni tashkil etish lozim va bu jarayonda boshqa biznes shakllarida tashkil etiladigan korporativ boshqaruvdan farqli jihatlarni ham inobatga olish lozim. Ikkinchidan, oila a'zolarining harakat yo'nalishlarini tashkil etish va buni to'g'ri amalga oshirish bo'yicha yagona boshqaruvning mavjud bo'lishi lozim. Chunki bu masala biznes muammolarini hal qilish va maqsadlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Oilaviy biznes kompaniyalari bugungi kunda dunyoda barcha kompaniyalarning asosiy qismini tashkil qilishi, ular tomonidan o'rtacha ish o'rnlarining katta qismi yaratilishi va jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shadigan hissasi orqali xulosa qilish mumkinki, oilaviy biznes butun dunyo bo'ylab muhim ahamiyat kasb etmoqda va shu sababli mamlakatimizda ham uning samarali tashkiliy va amaliy mexanizmlarini joriy etish lozim.

Oilaviy biznes bo'yicha xalqaro tajribani o'rganishda oilaviy biznes moliyasini tashkil etishga, oilaviy qadriyatlar va biznesning parallel samarali faoliyatini amalga oshirish yo'nalishlariga, oilaviy biznesni kengaytirish va uning hayotiylik davrini oshirishda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Xalqaro tajriba asosida biznesni tashkil etish va yuritishning oila modelini ham tadqiq qilish va ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu asosida mamlakatimizdagи oilaviy biznes vakillari uchun biznesni kengaytirish hamda oilaviy biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
2. Wejdan AL Kayid, Zhongqi Jin, Constantinos-Vasilios Priporas, Sumeetra Ramakrishnan. Defining family business efficacy: An exploratory study. // Journal of Business Research Volume 141, March 2022, Pages 713-725. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0148296321008948>
3. Walter Reina, José Pla-Barber, Cristina Villar. Socioemotional wealth in family business research: A systematic literature review on its definition, roles and dimensions. // European Management Journal Available online 31 October 2022.
4. M.Qazoqova, N.Eshmurodova. Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari. // "Zamonaviy fanda model va usullar" Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya, 11.23.2022.
5. Rushdi M.R. Razzaque, Muhammad Jahangir Ali, Paul Mather. Corporate governance reform and family firms: Evidence from an emerging economy // Pacific-Basin Finance Journal. Volume 59, February 2020.
6. Elmirzayev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 416 b.
7. Family Business Yearbook 2017. <https://familybusiness.ey-vx.com/fb-yearbook-flipbook-2017/mobile/index.html#p=10>
8. Family Business and Regional Development
9. <https://www.famcap.com/the-worlds-750-biggest-family-businesses/> –xalqaro oilaviy biznes bo'yicha axborotlar e'lon qilib boruvchi veb-sayt ma'lumotlari.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatinining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-slonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

